

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston 2030-strategiyasi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son farmoni "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"

3. Madaminov, D. (2023). ESG tushunchasi, tamoyillari va standartlarining vujudga kelishi hamda ularning korporativ huquqqa ta'siri. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8112075>

4. <https://lex.uz/docs/-6600413> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining milliy ma'lumotlar bazasi

## **SANOAT KORXONALARIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI**

**Raxmonov Jur'atbek G'ulomqodirovich**  
TDIU, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya.** Bugungi kunda iqlim o'zgarishi sharoitida sanoat korxonalarini yashil loyihalar orqali moliyalashtirish ekologik zaruriyat va iqtisodiy raqobatbardoshlikning strategik yo'li hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar, kreditlar, ekofonlar va davlat subsidiyalari kabi moliyaviy vositalar korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. O'zbekistonda ushbu soha rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lib, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali sezilarli natijalarga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** yashil moliya, sanoat korxonalarini, yashil loyihalar, moliyaviy mexanizmlar, ekologik transformatsiya, barqaror rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, yashil obligatsiyalar.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning keskinlashuvi dunyo miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasini kun tartibining markaziga olib chiqmoqda <sup>50</sup>. Sanoat korxonalarini ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega, chunki global miqyosda karbon chiqindilarining sezilarli qismi aynan sanoat faoliyati natijasida yuzaga keladi. Shu sababli atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga yoki uni yaxshilashga qaratilgan ishlab chiqarish texnologiyalari, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalasi ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekistonda ham sanoat tarmog'ini yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirish yo'lida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu jarayonni moliyaviy jihatdan qo'llab-

<sup>50</sup> Bhattacharyya, R. (2022). Green finance for energy transition, climate action and sustainable development. *Green Finance*, 4(1), 1-35. <https://doi.org/10.3934/GF.2022001>

quvvatlash mexanizmlarini chuqur o'rganish va takomillashtirish masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Yashil moliyalashtirish — bu atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi loyihalarni amalga oshirish maqsadida jalb etiladigan moliyaviy resurslar majmuidir. Xalqaro amaliyotda ushbu sohadagi asosiy vositalar quyidagilardan iborat: yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ekofonlar va davlat subsidiyalari. Jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasima'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 500 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich yildan yilga o'sib bormoqda<sup>51</sup>.

Yashil moliya — sanoat korxonalarini uchun yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanish yo'nalishidagi muhim siyosiy innovatsiya sifatida — yashil investitsiyalar orqali korxonalarining iqtisodiy rivojlanish usuli va tuzilmasini optimallashtirishi, ishlab chiqarish jarayonlarini ratsionallashtirishi va texnologik rivojlanish darajasini oshirishi hamda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi va barqaror faoliyat yuritish darajasini yuksaltirishi mumkin.

Sanoat korxonalarida yashil loyihalarni moliyalashtirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy vosita sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil moliya maxsus moliyaviy strategiyalar yordamida sanoat korxonalarining ekologik yo'nalishda rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon to'rtta asosiy funktsiya orqali amalga oshiriladi:

Birinchi — kapital shakllanishi bo'lib, innovatsion moliyaviy vositalar yordamida jamg'armalarni yashil sanoat loyihalariga yo'naltirish va yangi ekologik texnologiyalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi. Ikkinchi — resurslarni qayta taqsimlash, ya'ni ifloslashtiruvchi ishlab chiqarish tarmoqlariga ajratiladigan kreditlarni qisqartirib, korxonalarini toza texnologiyalarga o'tishga undaydi. Uchinchi — ma'lumot uzatish funktsiyasi bo'lib, davlatning barqaror rivojlanishga sodiqligini ifodalab, sanoat korxonalarini yashil innovatsiyalar joriy etishga yo'naltiradi. To'rtinchi — omillarni yo'naltirish, ya'ni foiz stavkalari va subsidiyalar mexanizmi orqali moliyaviy resurslarni ekologik loyihalarga jalb etib, ularning investitsion xavfini kamaytiradi va sanoat korxonalarining yashil rivojlanish yo'lida barqaror faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Yashil moliyaviy mexanizmlar sanoat korxonalarini faoliyatining sifat jihatidan yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, sanoat tuzilmasini takomillashtirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali bu jarayonni yanada chuqurlashtiradi.

Yashil moliya kapital taqsimlash va resurslarni yo'naltirish funktsiyalari orqali yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, yashil moliya sanoat tuzilmasini ratsionallashtirish va ilg'orlashtirish orqali bilvosita ta'sir ham o'tkazadi<sup>52</sup>. Ekologik nazorat va tartibga solish choralari yashil moliyaning sanoat tuzilmasi yangilanishiga bo'lgan ijobiy

<sup>51</sup> International Finance Corporation. (2023). Green bond market report 2023. <https://www.ifc.org>

<sup>52</sup> Xu, S.; Dong, H. Green Finance, Industrial Structure Upgrading, and High-Quality Economic Development—Intermediation Model Based on the Regulatory Role of Environmental Regulation. *Environmental Research and Public Health*, 2023, 20, 1420. <https://doi.org/10.3390/ijerph20021420>

ta'sirini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lib, o'z navbatida sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini mustahkamlaydi.

Sanoat korxonalarini uchun yashil moliyalashtirish bir necha asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: energiya iste'molini optimallashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish tizimlari, quyosh hamda shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalardan foydalanish, shuningdek, uglerod chiqindilari hajmini pasaytirish bo'yicha kompleks dasturlar. Bunday loyihalar faqatgina ekologik maqsadlarni ko'zlamaydi — ular korxonalariga energiya xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish imkonini berib, raqobat muhitida barqaror ustunlik qozonishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi hozirda faol shakllanyapti. "O'zbekiston — 2030" milliy strategiyasi doirasida qayta tiklanadigan energiya tarmoqlarini kengaytirish, energiya samaradorligini yuksaltirish va xalqaro ekologik normativlarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu yo'nalishda Markaziy bank va tijorat banklarining "yashil energiya" sohasiga mo'ljallangan maxsus moliyaviy instrumentlar ishlab chiqishi amaliy qadamlardan biri bo'lmoqda<sup>53</sup>.

Shu bilan birga, soha rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Avvalo, yashil loyihalar an'anaviy investitsiya loyihalariga qaraganda boshlang'ich kapital talabi ancha yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, tijorat banklari tizimida yashil loyihalarni professional baholash uchun zarur bo'lgan uslubiy bazalar va ixtisoslashgan mutaxassislar hali yetarli darajada shakllanmagan. Yashil obligatsiyalar bozori esa mamlakatimizda endigina ildiz ota boshlagan.

Sanoat korxonalarida yashil loyihalarni samarali moliyalashtirish uchun bir necha strategik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat kafolatlari va subsidiyalari orqali xususiy investitsiyalarni jalb etuvchi davlat-xususiy sheriklik modelini kengaytirish, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali imtiyozli kreditlar va texnik ko'mak resurslarini jalb etish, hamda milliy yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish sohaga uzoq muddatli moliyalashtirish manbaini ta'minlay oladi.

Sanoat korxonalarida yashil loyihalarni moliyalashtirish ekologik majburiyat va raqobatli mavqeini mustahkamlashning samarali strategiyasi sifatida bir-birini to'ldiradi. O'zbekiston bu borada endigina qadam tashlayotgan bo'lsa-da, davlat islohotlari, xalqaro hamkorlik va ichki moliya bozorlarini modernizatsiya qilish real o'zgarishlarga zamin yaratmoqda. Yashil moliyalashtirish vositalarini keng qo'llash sanoat korxonalarini zamonaviy ekologik talablarga javob

---

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>

beradigan darajaga olib chiqibgina qolmay, mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishga ham bevosita hissa qo'shadi.

## DAVLAT FISKAL VOSITALARI ORQALI ENERGETIKA LOYIHALARINI MOLIYALSHTIRISHNI RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI

*Yakubova Rushana G'olib qizi*  
TDIU, "Moliya" mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot energetika sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda fiskal mexanizmlarning ta'sir doirasini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan. Tezida energetika loyihalarining o'ziga xos iqtisodiy tabiati, yuqori kapital sig'imi va uzoq muddatli rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Sohadagi soliq yukini optimallashtirish va bojxona preferensiyalarini tabaqalashtirish bo'yicha yangi iqtisodiy yondashuvlar ilgari surilgan bo'lib, ular energetika xavfsizligini ta'minlashda fiskal rag'batlantirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** energetika iqtisodiyoti, fiskal rag'batlantirish, kapital sig'imi, soliq ta'tillari, bojxona preferensiyalari, reinvestitsiya, investitsion soliq krediti.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda energetika tarmog'i har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi fundamental baza hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiya bosqichida energetika quvvatlarini modernizatsiya qilish nafaqat texnik, balki murakkab iqtisodiy-fiskal jarayondir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida energetika mustaqilligiga erishish va sohada xususiy sektor ulushini oshirish strategik maqsad sifatida belgilangan<sup>54</sup> [2].

O'zbekiston energetika sektori jadal transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda, bunda an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish tizimlari rivojlanmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda umumiy o'rnatilgan quvvati 21 398 MVt bo'lgan 91 ta elektr stansiya faoliyat yuritmoqda. Energiya ishlab chiqarish tarkibida issiqlik elektr stansiyalari 80%, gidroenergetika 10%, quyosh energiyasi 9% va shamol energiyasi 1% ulushni tashkil etadi (1-rasm). 2024-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 84.1 milliard kVt/soat ga yetgan. Shuningdek, 2 000 MVt quyosh energiyasi va 200 MVt shamol energiyasi quvvatlari ishga tushirilgan hamda 184 km yangi elektr uzatish infratuzilmasi qurilgan<sup>55</sup> [5].

Energetika loyihalari o'zining investitsion tabiati bo'yicha boshqa tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Mazkur loyihalarda dastlabki investitsiya xarajatlarning (CAPEX) o'ta yuqoriligi va loyihaning o'zini oqlash muddati o'rtacha 7-12 yilni tashkil etishi investorlardan katta moliyaviy barqarorlikni, davlatdan esa ishonchli fiskal kafolatlarni talab etadi.

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>

<sup>55</sup> Invest Uzbekistan. Energy sector overview. — 2024. <https://invest.gov.uz/en/guide/explore/8>